



ISLOM VA TASAVVUFGA ASOSLANGAN TARIQAT

<https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.125>

Xamzayev Shavkat Abdirasulovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti, falsafa doktori (PhD)

E-mail: shavkatxamzayev84@gmail.com

Annatosiya. Maqolada islom va tasavvuf an‘analari asosida shakllangan Yassaviylik yodgorligi, g‘oyaviy-ma‘naviy ildizlari va tarixiy taraqqiyot bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti, ta‘lim buyuklari bo‘yicha munosabatlari va tariqat tizimi mashqlari va undagi o‘rni talanadi – bular Markaziy Osiyo hududida ta‘lim faoliyatining keng tarqalishiga olib kelgan omillar ham yoritiladi. Shuningdek, maqolada Yassaviylikning keyingi muridi, izdoshlari va shoiridagi faoliyati hamda tariqatning ijtimoiy-ma‘naviy yondashuvi manbashunoslik va tarixiy-falsafiy asosida bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: islom falsafasi, sufiylik ta‘limoti, tasavvuf, tariqat, Markaziy Osiyo tasavvufi, Yassaviylik, Xoja Ahmad Yassaviy, muridlik an‘anasi, ma‘naviy meros, irfoniy qarashlar.

Аннотация. В статье научно анализируется памятник яссавийской традиции, сформировавшийся на основе исламских и суфийских духовных практик, а также его идейно-духовные корни и этапы исторического развития. Рассматриваются жизнь Ходжи Ахмада Яссави, его взаимоотношения с выдающимися наставниками учения, система тариката, духовные упражнения и их значение, а также факторы, способствовавшие широкому распространению образовательной деятельности на территории Центральной Азии. Кроме того, на основе источниковедческого и историко-философского анализа освещается деятельность последующих мюридов, последователей и поэтов яссавийской традиции, а также социально-духовный подход тариката.

Ключевые слова: исламская философия, суфийское учение, тасаввuf, тарикат, суфизм Центральной Азии, яссавийская традиция, Ходжа Ахмад Яссави, традиция мюридизма, духовное наследие, ирфанические взгляды.

Abstract. The article provides a scholarly analysis of the Yassawi tradition as a spiritual legacy shaped within Islamic and Sufi frameworks, examining its ideological and spiritual foundations as well as the stages of its historical development. It explores the life of Khoja

Ahmad Yassawi, his relationships with eminent masters of the teaching, the structure of the tariqa system, and the role of spiritual practices within it, highlighting the factors that contributed to the widespread dissemination of educational activities across Central Asia. Furthermore, the study discusses, from a source-critical and historical-philosophical perspective, the activities of later disciples, followers, and poet-figures of the Yassawi tradition, along with the social and spiritual approach embodied in the tariqa.

Keywords: Islamic philosophy, Sufi doctrine, tasawwuf, tariqa, Central Asian Sufism, Yassawiyya, Khoja Ahmad Yassawi, murid tradition, spiritual heritage, irfan-based perspectives.

Kirish (Introduction)

Islom sivilizatsiyasi tarixida tasavvufiy qarashlar dastlabki bosqichda Iroq o‘lkasida zohidlik (tarkidunyochilik) harakati sifatida paydo bo‘ldi. VIII asrdan boshlab mazkur ma’naviy yo‘nalish geografik jihatdan kengayib, IX asrda o‘zining nazariy-metodologik bazasiga ega bo‘lgan mustaqil maktablar tizimini yaratdi. Ayniqsa, XI-XII asrlarga kelib, so‘fiylarning dastlabki diniy uyushmalari, nazariy qarashlari va ta’limotlari jamiyatning ijtimoiy qatlamlariga singib bordi va institutsional ko‘rinish oldi.

Natijada, XI-XII asrlarda tasavvuf keng ko‘lamli ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida e’tirof etilib, musulmon jamiyati diniy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ta’limotning ijtimoiy g‘oyalarga nisbatan ochiqligi va moslashuvchanligi turli mintaqaviy yo‘nalishlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Jumladan, Xorazmda Kubraviya (XII-XIII-asr), Turkistonda Yassaviya (XII-asr) Buxoroda Naqshbandiylik (XIV-asr) tariqatlari shakllandi va rivojlandi. Tasavvuf jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga qarab transformatsiyaga uchrab, o‘zining hayotiylikini saqlab qoldi. Tasavvuf ta’limoti jamiyatdagi o‘zgarishlarga qarab, ijtimoiy hayotga moslashib bordi va rivojlanishda davom etdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Tasavvuf ta’limoti, Markaziy Osiyodagi tariqat yo‘nalishlari, jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va ma’naviy merosining turli jihatlari yuzasidan M. Xayrullayev, E. Yusupov, M. Usmonov, O. Usmonov, N. Komilov, I. Haqqul, H. Aliqulov, R. Nosirov, I. Mo‘minov, G. Navro‘zova, R. Shodiyev, Z. Is‘hoqova, J. Xolmo‘minov kabi olimlarning tadqiqotlarida fikr-mulohazalar yuritilgan. Xususan, M. Xayrullayev va R. Nosirovlar “tasavvuf tariqatlari, shuningdek Ahmad Yassaviy tasavvufiy qarashlari ham, o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan hali yetarli darajada tadqiq etilmagan” [1], deb ko‘rsatganlar. M. Xajiyeva tadqiqotlarida “Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyatini atroflicha o‘rganishga urinadi” [2;134], ammo uning tadqiqotlarida yassaviya tariqatini asosan pedagogik nuqtai nazaridan o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot jarayonida mavzuning mohiyatini ochib berish maqsadida ilmiy bilishning tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari uyg‘unligiga tayanildi. Xususan, o‘rganilayotgan

obyektning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishda vorisiylik va obyektivlik mezonlari asos qilib olingan bo‘lsa, ma‘lumotlarni guruhlash va xulosalashda analiz, sintez hamda tizimli yondashuv metodlaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti va faoliyati, ta‘limoti, tariqati, hikmatlari, ijtimoiy qarashlariga doir ma‘lumotlarni “Mir‘ot ul-qulub”, “Nasabnoma”, “Risola dar tarjimai Ahmad Yassaviy”, “Hadiqat ul-orifin”, “Javohir ul-abror”, “Manba‘ ul-abhor”, “Jomi‘ ul-murshidin”, “Hujjat ul-abror”, “Lamahot min nafahot il-quds”, “Samarat ul-mashoyix” kabi tarixiy asarlar va manoqiblarda ko‘rishimiz mumkin. Shunday ekan, Ahmad Yassaviyning hayoti va faoliyatini o‘rganishda manoqiblarga tanqidiy yondashib, asosan tarixiy manbalarga suyanish zarurdir.

Xoja Ahmad Yassaviy 1097 yilda Turkistonning Sirdaryo yerlariga tobe Chimkent yaqinidagi, Sayramda tavallud topgan. Otasi Ibrohim ibn Mahmud ibn Ixtixor ajdodlari payg‘ambar Muhammad alayhissalomning qizlari Fotima avlodidan shayx Is‘hoq boboga tutashgandir. Ahmad Yassaviyning onasi Qorasoch oyim xalq orasida hurmatli ayol bo‘lgan. Orif Usmon “...Xoja Ahmad Yassaviyning aniq ilmiy tarjimai holi shu paytgacha Sharq tasavvufi she‘riyati muxlislari oldida ma‘lum bo‘lmay kelayotganligini taassuf bilan qayd etishgan” [9:Usmon Orif. –B.6]. Lekin Yassaviy “Hikmatlar”ining o‘zi mutasavvuf hayoti va tarjimai holini o‘rganishda asosiy manba bo‘la oladi [1: Ahmad Yassaviy.– B. 51.].

Xoja Ahmad Yassaviy dastlabki ta‘limni Yassida oladi, so‘ngra bobosi Arslonbob xohishi bilan Buxoroga keldi va 1124-1158 yillar oralig‘ida Xoja Yusuf Hamadoniydan ta‘lim oldi. Juda ko‘plab olim va tadqiqotchilr Xoja Ahmad Yassaviy Turkistonga qaytganligini shunchaki qayd etib o‘tganlar, lekin “qaytish” sababini aniqlamaganlar. Bizning fikrimizcha, Xoja Ahmad Yassaviyning Buxoroni tark etib, Turkistonga ketishi sababi o‘z ta‘limotini mazmun-mohiyati ko‘chmanchi chorvadorlarga mo‘ljallanganligi, shuningdek, butparastligicha qolib kelayotgan turkiy qorluqlarni islomga kiritish tarafdori bo‘lgan. Olim X.Ne‘matovning “Ahmad Yassaviy hayotiga oid ba‘zi sanalar” sarlavhali maqolasi Yassaviy 1097 milodiy yilda tug‘ilib taxminan, oltmish yoshlarda Turkistonga qaytgan, xilvatda olti yil yashab, 1166 yilda ya‘ni 69 yoshida vafot etganlinini [7: Ne‘matov X.–B.6] tadqiqotlarida qayd etgan. Professor V.Zohidov so‘fiylik bir qancha tariqatlarga bo‘linishini uqtirib, ularni bu dunyoga, tabiatga, hayotga, islom diniga munosabati tabiatga qarab yassaviylikni eklektik (grekcha.-tanlayman har hil qarash, nazariyalarni aralashtirib yuborish) oqimining ko‘zga ko‘rinarli vakilidir, deb ta‘kidlaydi [4: Zohidov V. - B. 320-331.].

Xoja Ahmad Yassaviy yashagan davrda turkiy xalqlarning bir qismi hali islomni qabul qilmagan, ko‘chmanchilik holatida yashar edi. Ayrim xalqlar esa islom dinini qabul qilgani bilan hali ular ongida islom aqidalari mustahkam o‘rin olmagan edi. Shuning uchun Yassaviy tariqati bir yo‘la ham tasavvuf, ham islom dinini targ‘iboti tarzida maydonga keldi. Angliyalik olim J.S.Trimingem xuddi shu holatni nazarda tutib: “Yassaviylik ta‘limoti bir qancha diniy, ijtimoiy va madaniy tarmoqlarga ega. Yassaviy turkiy qabilalarni musulmonlashuvida, ular

orasida islomni targ‘ib etishda muhim o‘rin tutadi” [8: Trimingem. J.S.-S.156] deb ta’kidlagan edi.

Demak, Ahmad Yassaviy o‘z tariqati tamoyillarini yaratishda avvallo “aholining ruhiy-ma’naviy darajasi, diniy-ma’rifiy tayyorgarligi”ni nazarda tutgan [8: Trimingem. J.S.-S.156], so‘ngra ko‘chmanchi chorvador tabaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan. Ta’kidlash kerakki, Ahmad Yassaviy tariqatining “turkiy zabonda ifodalagani”, uning xalq ruhiy-ma’naviy, diniy-ma’rifiy darajasiga muvofiq kelishi yassaviylikni ko‘chmanchi turkiy chorvadorlar orasida tez tarqalishini ta’minladi.

Yassaviylik ta’limotining keng tarqalishiga sabab bo‘lgan omillardan yana bittasi, uning islomgacha bo‘lgan xalq rasm-rusumlariga, turmush tarziga asoslanganidadir. Misol uchun, tarkidunyochilikning bir ko‘rinishi “uzlatga” chekinish Turkiston hududida islomdan dinidan ilgargi budda, nasroniy diniy urf odatlarida bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim [5: Zohidov V. - B.68.]. Albatta, Yassaviy ham o‘z qavmlariga tegishli tariqatni birdaniga topgan yoki yaratgan emas, bu borada u ustozlaridan madad olganligi, muntazam ravishda islom kalomi, hadisshunoslik, tasavvuf ilmi bilan mashhur bo‘lganligi manbalarda ko‘p bor qayd etiladi.

Demak, Yassaviya tariqati ham islom va tasavvuf asoslangan tariqatdir. Tarixchi olimlar ta’kidlashicha, Qur’oni karim va hadislaridan keyin Ahmad Yassaviy hikmatlari eng ko‘p shuhrat topgan edi.

O‘rta asrlarda yaratilgan ko‘plab manbalarda Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati, tariqati, keyingi davrdagi muridlari, izdoshlari, davomchilari haqidagi ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat va mashoyim ul-futuvvat” nomli asarida yassaviylik tariqati davomchilaridan o‘nlab piri-murshidlar haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Qutbiddin Haydar, Hakim ota – Sulaymon Boqirg‘oniy, Ismoil ota, Is’hoq ota, Sadr otalar haqida ma’lumot berib [6: Navoiy A. – B.15-154.], ul kishilarni Ahmad Yassaviy muridi va tariqatining yirik vakillaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Sulaymon Boqirg‘oniy ta’rificha, Xoja Ahmad Yassaviy “mashoyixlar ulug‘i, ikki jahon ko‘zgusi” bo‘lmish piri komildir [3: Boqiriy S. –B.14]. Yassaviya tariqati talablari shayx uchun ham, hukmdor uchun ham, oddiy soliq uchun ham bir xil edi.

Mustaqillik yillarida A.Bozorov, T.Qorayev kabi tadqiqotchilar Xoja Ahmad Yassaviy va uning boshqa xalifalari to‘g‘risida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan [2: A.Bozorov, T.Qorayev. –B.13-14]. Tadqiqotchi O.Usmonov ta’kidlashicha, Yassaviya tariqatiga e’tiqod qo‘ygan, uning qoidalarini targ‘ib qilgan izdoshlari Uzun Hasan ota, Said ota, Sadir ota va Badir otalar barchasi Zangi otaning shogirdlaridir [9:Usmon Orif. –B.6]. Toshkent va Chimkent viloyatlarida Xoja Ahmad Yassaviyning xalifa va shogirdlari bo‘lmish Sayid ota, Suzuk ota, Zangi ota, Ibrohim ota kabi ko‘plab otalar yashab, xalqimizni xaq yo‘liga, poklik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mehr-shafqat, diyonat, imondorlik kabi umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya qilganlar. Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy islom olamidagi ko‘plab mutasavvufning piri va shayxi hisoblanadi. Tadqiqotchi O.Usmonov Movarounnahrda

XIV-XV asrlardan so‘ng paydo bo‘lgan “bektoshiya” va yana bir necha kichik tariqatlarni ham “yassaviya” dan tarqalgan, deb hisoblaydi, ammo bu nazariyani yangi manbalar asosida isbotlash talab etiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xoja Ahmad Yassaviy ilm-ma‘rifat insonga olamni tanitishi, ilm bilan tajriba uzviy bog‘liq bo‘lishi, tarbiya va ilmdan hosil bo‘ladigan yaxshi xulq-odob insonga ikki dunyoda ham kerakligini tushuntirishga alohida e‘tibor qaratadi. Mutasavvuf shaxsni axloqiy shakllantiruvchi omil sifatida, eng avvalo, ustozni qo‘yadi. Ayni paytda yoshlar tarbiyasini o‘z zimmasiga olgan ustozlar oldiga ham qat’iy va yuksak talablarni qo‘yadi. Xoja Ahmad Yassaviy “Hikmatlar” asarida shaxsni axloqiy shakllantiruvchi eng muhim omil bu, o‘zini-o‘zi tanqidiy baholay oluvchi bir mavjudot ekanligini ta’kidlab, insonni yomonlikdan nafratlanuvchi, ezgulikni himoya etuvchi ta’riflaydi [3;51-193- 221]

Shu ma‘noda, Yassaviylik tariqatining o‘z davriga nisbatan keng yoyilishiga sabab, fikrimizcha, jamiyatning barcha tabaqalariga mos ijtimoiy tariqat edi. Jumladan, chorvadorlar, hunarmandlar, dehqonlarning orzu-istaklari, manfaatini o‘zida aks ettirishi, bundan tashqari, tariqatning gumanistik, ahloqiy, tarbiyaviy g‘oyalarga boyligi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Хайруллаев М.М. К Изучению истории вольнодумных идей в общественной мысли народов Средней Азии Ташкент: Фан, 1991. –С.3-10; Nosirov R. Ahmad Yassaviyning diniy-axloqiy qarashlari// O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. - Toshkent: O‘zbekiston, 1995. - B.116.
2. Xajiyeva M. Xoja Ahmad Yassaviyning ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: Muharrir, 2012. – 134 b.
3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. - T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1991. – B. 51.
4. Bozorov A, Qorayev T. Yassaviy ixlosi// Sharq yulduzi, 1991. - №1-son. - B. 13-14.
5. Boqiriy S. Boqirg‘on kitobi.14-b Boqirg‘oniy S. Boqirg‘on kitobi. –Toshkent.: Yozuvchi, 1991.- B.14.
6. Zohidiy A. Turkistonda o‘rta asr arab-musulmon madaniyati.- T.:GFNTI, 1994.- B. 68.
7. Zohidov V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi.-T.:1970.- B. 320-331.
8. Navoiy A. Nasoimul muhabbat. –Toshkent.: Badiiy adabiyot,1968. – B.150-154 .
9. Ne‘matov X. Ahmad Yassaviy hayotiga oid ba‘zi sanalar // O‘zbek tili va adabiyoti, 1992. - №2 son. - B.6.
10. Тримингэм. Ж.С. Суфийские ордена в исламе.- М.:Наука, 1989.- С.156.
11. Usmon Orif. “Vahdat sharbatin ichdim ”(Yassaviy tariqati)// Muloqot jurnali, 1991. - №6-son, - B.6.